

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12. 2019.Yu.22.01
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

NABIRAYEVA ZARNIGOR AKMALOVNA

**MOLIYA BOZORIDA ROBOT-MASLAHATCHILARNING FUQAROLIK-
HUQUQIY MAQOMI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
юридическим наукам**

**Contents of abstract of the dissertation of a Doctor of Philosophy (PhD) in
legal sciences**

Nabirayeva Zarnigor Akmalovna

Moliya bozorida robot-maslahatchilarning fuqarolik-huquqiy maqomi.....3

Набираева Зарнигор Акмаловна

Гражданско-правовой статус роботов-консультантов на финансовом
рынке..... 27

Nabiraeva Zarnigor Akmalovna

The civil law status of robot advisors in the financial market.....53

Список опубликованных научных работ

Эълон қилинган илмий ишлар рўйхати

List of published scientific works.....58

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12. 2019.Yu.22.01
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

NABIRAYEVA ZARNIGOR AKMALOVNA

**MOLIYA BOZORIDA ROBOT-MASLAHATCHILARNING FUQAROLIK-
HUQUQIY MAQOMI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2023.2.PhD/Yu1052 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan. Dissertatsiyaning avtoreferati uch tilda – rus, o'zbek va ingliz (rezume) tillarida Toshkent davlat yuridik universitetining Ilmiy kengashi veb-sayti (www.tsul.uz) hamda (www.ziyounet.uz) saytida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Narziyev Otabek Sa'diyevich yuridik fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Yakubov Ahtam Nusrotulloyevich yuridik fanlar doktori, professor Ismanjanov Akbar Anvarjanovich yuridik fanlar doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti

Dissertatsiya himoyasi 2025-yil 15-noyabr kuni soat 12:00 da Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli ilmiy darajalarni beruvchi Ilmiy kengash majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48, info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1442-raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 13-uy. Tel.: (+99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 29-oktabr kuni tarqatilgan.
(2025-yil 29-oktabrdagi 95-raqamli reyestr bayonnomasi).



I.R. Rustambekov
Ilmiy darajalarni beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

D.Y. Xabibullayev
Ilmiy darajalarni beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

B.K. Xodjayev
Ilmiy darajalarni beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi, jumladan, robot-maslahatchilarning joriy etilishi aktivlarni boshqarish sohasidagi professional xizmatlarni ommalashtirishga yordam berib, kapital hajmi yuqori bo'lmagan investorlar uchun ulardan foydalanish imkoniyatini ta'minlamoqda. Jarayonlarni avtomatlashtirish investitsiyalarni boshqarish xarajatlarini an'anaviy usullarga nisbatan sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi. Algoritmik yondashuv investitsiya qarorlariga inson his-tuyg'ulari va tarafkashlik ta'sirini minimallashtiradi. Maslahatchi robotlar katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashga va odamdan ko'ra tezroq qaror qabul qilishga qodir. Avtomatlashtirilishiga qaramay, bu tizimlar har bir mijozning o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga olgan holda individual tavsiyalar berishga qodir. Tan olish kerakki, bunday innovatsion texnologiyalardan foydalanish nafaqat inson imkoniyatlarini oshiradi, balki iqtisodiyot va hayot sifatini ham o'zgartiradi.

Butun dunyoda robot-maslahatchilardan foydalanish yildan yilga ortib bormoqda. Prognozlariga ko'ra, 2025-yilga borib robot-maslahatchilar bozorida boshqariladigan aktivlar 2,06 trillion AQSh dollariga yetadi. Boshqaruv ostidagi aktivlar yillik o'sish sur'ati (CAGR 2025-2029) 3,66 foizni tashkil etishi kutilmoqda, bu esa 2029-yilga kelib jami 2,38 trillion AQSh dollari miqdorida prognoz qilinmoqda. 2029-yilga kelib robot-maslahatchilar bozorida foydalanuvchilar soni 34,050 mln foydalanuvchini tashkil etadi. 2025-yilda robot-maslahatchilar bozorida bir foydalanuvchiga to'g'ri keladigan aktivlarning o'rtacha qiymati 61,9 ming AQSh dollarini tashkil etishi kutilmoqda. Global taqqoslash shuni ko'rsatadiki, boshqariladigan aktivlarning eng katta hajmiga Qo'shma Shtatlarda erishilgan (2025-yilda 1,67 trillion AQSh dollari). Market Research Future hisobotiga ko'ra, robot-maslahatchilarning jahon bozori 2021-yildan 2023-yilgacha har yili 30 foizdan ortiq o'sgan. 2023-yilda bozor hajmi 8,14 milliard dollarga yetdi. "Statista" ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda 26 millionga yaqin robot-maslahatchilarning faol foydalanuvchilari ro'yxatga olingan, bu 2021-yilga nisbatan 40 foizga ko'pdir. Eng ko'p qo'llanadigan sohalarga moliyaviy sohani kiritish mumkin. Robot-maslahatchilar investitsiyalarni boshqarish va moliyaviy maslahatlar berish uchun faol qo'llanadi. 2023-yilda robot-maslahatchilar bozorining 70 foizdan ortig'i moliya sektori hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, so'nggi yillarda chakana savdoda mijozlarni qo'llab-quvvatlash va marketingni avtomatlashtirish bo'yicha yechimlar faol rivojlanmoqda. AQSh robot-maslahatchilardan, ayniqsa, moliya sektorida eng ko'p foydalanish bo'yicha yetakchi davlat hisoblanadi. 2023-yilda robot-maslahatchilardan foydalanuvchilarning 60 foizdan ortig'i AQShda istiqomat qilgan. Chakana savdo va sog'liqni saqlash sohasiga robot-maslahatchilarni faol joriy etayotgan Xitoy ikkinchi o'rinda turadi. Yevropada robot-maslahatchilardan foydalanuvchilar soni bo'yicha Germaniya va Buyuk Britaniya yetakchilik qilib, asosiy e'tibor moliyaviy va ta'lim xizmatlariga qaratilgan.¹

¹ Statista Market Insights <https://www.statista.com/outlook/fmo/wealth-management/digital-investment/robot-advisors/worldwide> Most recent update: oct. 2024

O‘zbekiston Respublikasida innovatsion texnologiyalarni joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-fevraldagi “Raqamli texnologiyalar xalqaro markazini tashkil etish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-25-son², 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son³, 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son farmonlari, 2021-yil 26-avgustdagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5234-son⁴, 2021-yil 17-fevraldagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4996-son,⁵ 2024-yil 14-oktabrdagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-358-son qarorlari⁷, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-noyabrdagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo‘lga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 717-son qarori⁸ va boshqa me‘yoriy hujjatlar mamlakatimizni raqamlashtirishni jadallashtirish, iqtisodiyot sohasiga eng yangi texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan. Ushbu hujjatlar raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘nalishlaridan biri sifatida sun‘iy intellekt, kriptografiya, mashinali o‘qitish, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va bulutli hisoblash texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish va ularni iqtisodiyot sohasiga amalda joriy etishni belgilaydigan kompleks rejadir.⁹

Shu nuqtayi nazardan robot-maslahatchilarni rivojlantirish, ulardan foydalanishda ma’lumotlar himoyasini ta’minlash, huquqiy asoslarni qabul qilish va takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda xalqaro standartlar va ilg‘or tajribalarni inobatga olish zarur. Masalan, Yevropa Ittifoqining 2016/679-yillardagi

² O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli texnologiyalar xalqaro markazini tashkil etish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 1-fevraldagi PF-25-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6786380>

³ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841077>

⁴ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 26-avgustdagi PQ-5234-son qarori. <https://lex.uz/docs/-5603319>

⁵ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son qarori. <https://lex.uz/docs/-5297046>

⁶ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030’ strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5031048>

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori. <https://lex.uz/docs/-7158606>

⁸ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo‘lga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2021-yil 29-noyabrdagi 717-son qarori. <https://lex.uz/docs/-5749111>

⁹ Nabirayeva Z. A. Развитие Современных Инновационных Технологий в Республике Узбекистан. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF INNOVATIONS ON TOURISM MANAGEMENT AND FINANCE. Volume: 04 Issue: 03 | 2023 ISSN: 2660-454X <https://cajtmf.centralasianstudies.org>

ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha umumiy reglamenti (GDPR) bugungi kunda xalqaro miqyosda etalon sifatida tan olingan. Robot-maslahatchilar to'g'risidagi qonunchilikda axborot maxfiylikni himoya qilish muhim o'rin tutadi. Shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlaydigan robot-maslahatchilar ma'lumotlarning sizib chiqishi va ruxsatsiz kirishdan himoya qilish mexanizmlari bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Shuningdek, qonun hujjatlarida shaxsga doir ma'lumotlarni saqlash va ularga ishlov berishning qat'iy qoidalari, shu jumladan, ulardan foydalanish va ularni uchinchi shaxslarga berish bo'yicha cheklovlarni belgilash nazarda tutilishi kerak. Shuningdek, Yevropa Ittifoqida faoliyat yurituvchi robot-maslahatchilar belgilangan me'yoriy talablarga, jumladan, Moliyaviy instrumentlar bozori to'g'risidagi yo'riqnomaga (MiFID II) amal qilishlari shart. U moliyaviy vositalar va xizmatlarning keng doirasini, jumladan, qimmatli qog'ozlar, hosilaviy moliyaviy vositalar, investitsiya fondlari va hatto robot-maslahatchilar faoliyatini qamrab oladi. Biroq O'zbekiston Respublikasida robot-maslahatchilar faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy baza mavjud emas. Mavzuning dolzarbligi shu bilan izohlanadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mos ravishda bajarilgan. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini va ularni amalga oshirish usullarini shakllantirishga qaratilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda sun'iy intellektga oid ayrim masalalar ma'lum darajada quyidagi olimlarning ilmiy ishlari doirasida ko'rib chiqilgan: S.S. Gulyamov, I.R. Rustambekov, O.S. Narziyev, S.S. Bozarov, K.M. Mexmonov, A.N. Yakubov, S.Sh. Mamanazarov, A.E. Jumagulov, A.R. Pulatov, K.Y. Batirova, A. Tojiboyev, A.A. Qalandarov, J.F. Muxitdinov, M.A. Turdaliyev va boshqa mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, umumiy fuqarolik-huquqiy va xalqaro xususiy-huquqiy masalalar H.R. Rahmonqulov, O. Oqyulov, Sh.N. Ro'zinazarov, N.F. Imomovlarning ishlarida o'rganilgan. Biroq mamlakatimizda robot-maslahatchilarning fuqarolik-huquqiy maqomiga oid huquqiy masalalar bo'yicha ilgari alohida tadqiqotlar olib borilmagan.

MDH mamlakatlari tadqiqotchilarining ishlarida sun'iy intellekt va robot-maslahatchilarning huquqiy maqomi keng o'rganilgan. A. Azimov, V.V. Arxipov, Y.V. Vavilin, A.A. Vasilev, A.G. Volevodz, Y.A. Voynikanis, A.V. Gabov, G.A. Gadjiyev, A.A. Golovina, V.A. Jilkin, A.A. Ivanov, A.O. Kolonin, N.B. Krysenkova, D.L. Kuznetsov, J.A. Margusheva, B.G. Martirosyan, M.X. Matayeva, S.B. Nanba, A.V. Neznamov, V.B. Naumov, A.V. Popova, O.Y. Potemkina, R.Sh. Raxmatulina, V.S. Savina, N.K. Sardarbek, Y.A. Tixomirov, I.A. Filipova, T.Y. Xabriyeva, I.A. Xavanova, Y.V. Xolodnaya, O.A. Chernaya, N.N. Chernogor, V.A. Shestak, D. Shpopper, O.A. Yastrebov va boshqalar.

Shuningdek, sun'iy intellekt va robot-maslahatchilar sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish bilan xorijlik sivilist olimlar T. Anderson, Aurelio, Tom Baker, B. Berger, O. Carré, V. Dorner, T. Epperson, M. Gabel, Gurrea-Martínez, Gordon Kuo Siong Tan, B. Hedges, T. Hess, S. Hassler, Theresia Natalie Hoya, F. James,

D. Jung, P. Klaus, F. Koh, P. Maume, F.E. Mezzanotte, Melanie L. Fein, Mihok, P.M. Morkhat, T. Mulgan, K. Phoon, A. Rühr, U. Singh, P. Sironi, M. Sumida, Bret E. Strzelczyk, D. Tedesco, Wai Yee Wan, C. Weinhardt, P. Witz va boshqalar yaqindan shugʻullangan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq amalga oshirilgan va ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yoʻnalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi moliya bozorida robot-maslahatchilarning fuqarolik-huquqiy maqomi muammolarini tahlil qilish va Oʻzbekiston Respublikasida amaldagi qonunchilikni takomillashtirish boʻyicha ilmiy konsepsiya ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“maslahatchi-robotlar” tushunchasining nazariy va fuqarolik-huquqiy ahamiyatini koʻrib chiqish va tegishli mualliflik taʼrifini ishlab chiqish;

robot-maslahatchilarning huquqiy subyektligi va robot-maslahatchi subyektlarining javobgarligi masalalari boʻyicha xorijiy tajribani oʻrganish va mualliflik ilmiy fuqarolik-huquqiy konsepsiyasini ishlab chiqish;

Oʻzbekiston Respublikasi sharoitlariga moslashish va samarali qoʻllash maqsadida robot-maslahatchilarni joriy etishning xorijiy tajribasini tahlil qilish;

Oʻzbekiston moliya bozorida robot-maslahatchilar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik va nazariy asoslarni takomillashtirish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida moliya bozorida robot-konsultantlarni tartibga solish sohasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlar tizimi olingan.

Tadqiqotning predmetini moliya bozorida robot-konsultantlar bilan bogʻliq fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, milliy qonunchilikni ham, ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligi va amaliyotini ham qoʻllash amaliyoti tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot doirasida ilmiy bilishning umumiy va xususiy usullaridan kompleks foydalanildi. Xususan, analiz, sintez, induksiya va deduksiya, formal mantiq, abstraksiya, tizimli yondashuv kabi umumiy usullardan foydalanildi. Shuningdek, qiyosiy-huquqiy, formal-yuridik, qonun va huquqni sharhlash, statistik maʼlumotlarni tahlil qilish, empirik kuzatish, ijtimoiy soʻrov va ilmiy bilishning boshqa usullari kabi maxsus usullardan foydalanilgan. Taʼkidlash joizki, mazkur tadqiqotda anʼanaviy yuridik usullar bilan bir qatorda zamonaviy innovatsion yondashuvlar kompleks tarzda qoʻllanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“maxsus huquqiy rejim” tushunchasiga sohalar boʻyicha yuridik shaxs boʻlgan tadbirkorlik subyektlarining zamonaviy texnologiyalarga asoslangan yangi mahsulot, xizmat yoki ishlarni nazorat qilinadigan cheklangan muhitda sinovdan oʻtkazish boʻyicha faoliyatini tartibga solishning alohida tartibi” sifatida tavsiflash hamda raqamli texnologiyalar sohasida innovatsiyalar, xizmatlar va biznes mahsulotlarini ishlab chiqish va sinovdan oʻtkazish boʻyicha “tartibga solish qumdoni”ni joriy etish masalalari asoslangan;

“mashinaviy o‘qitish – ma’lumotlardagi o‘zaro bog‘liqliklarni aniqlash va o‘rganish uchun jarayonlarni tadqiq qilish usullari (neyron tarmoqlar va statistika) va boshqa usullardan foydalangan holda tanlanmalarni o‘rganish va tahlil qilish orqali xulosalar chiqaradigan algoritmlarni o‘rganuvchi soha” haqidagi va “xalqaro tajriba asosida milliy qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish va takomillashtirish, sohaga oid ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qulay muhitni yaratish, xavfsizlik va etika talablarini joriy etish” masalalari asoslangan;

“kapital bozori sohasida moliyaviy vositalar, tartib-taomillar va mexanizmlarni joriy etuvchi yuridik shaxslar uchun alohida tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, xususan, maxsus rejimni joriy etish va “tartibga solish qumdoni” doirasida yangi moliyaviy xizmatni sinovdan o‘tkazishga ruxsat berilgan yuridik shaxsni tartibga solish qumdoni ishtirokchisi deb e’tirof etish” mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan va ilmiy asoslantirilgan;

“tartibga solish qumdoni”ning asosiy maqsadlarini belgilash; moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatni kuchaytirish; moliyaviy xizmatlar mijozlarining huquqlarini himoya qilish va moliyaviy tizim barqarorligini ta’minlash sharti bilan yangi moliyaviy xizmatlarni joriy etishga ko‘maklashish; moliyaviy xizmatlar turlarini kengaytirish, ularning ommabopligini, mijozlar talablariga muvofiqligini va ularning qoniqish darajasini oshirish; moliyaviy xizmatni muvaffaqiyatli sinovdan o‘tkazish natijalari bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirish” asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“maslahatchi robot” tushunchasiga mualliflik ta’rifi (definitsiya) ishlab chiqildi;

robot-maslahatchilarning huquqiy subyektligi bo‘yicha mualliflik ilmiy fuqarolik-huquqiy konsepsiyasi ishlab chiqilgan va subyektlarning ulardan foydalanish sohasidagi javobgarligi masalalari tadqiq etilgan;

robot-maslahatchilarni fuqarolik muomalasiga kiritish mexanizmlari taklif etilgan va ularni O‘zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyotini rivojlantirish uchun qo‘llash yo‘nalishlari aniqlangan;

robot-maslahatchilarning fuqarolik-huquqiy maqomini tartibga soluvchi normalarni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar shakllantirilgan hamda milliy qonunchilikni xalqaro standartlar, xususan, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Yevropa Ittifoqi va Sharqiy Osiyo mamlakatlarining huquqiy yondashuvlari bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha amaliy takliflar berilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sun’iy intellektning avtomatlashtirilgan tizimlari ishtirokidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni kiritish zarurati asoslantirilgan;

robot-maslahatchilarning maqomini belgilash, ularning faoliyatini tartibga solish va axloqiy tamoyillarga rioya qilish uchun keng qamrovli huquqiy asos (huquqiy doira) bo‘lgan “elektron shaxs” konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi xorijiy olimlar tomonidan tavsiya etilgan usullarning qo‘llanilganligi, xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan mamlakatlar tajribasi, huquqni qo‘llash amaliyoti tahlil qilinganligi, natijalarning umumlashtirilganligi, hujjatlashtirilganligi, takliflarning amaliyotga

joriy etilganligi va vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi, natijalarning yetakchi nashrlarda chop etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalaridan qonun ijodkorligi jarayonida, xususan, robot-maslahatchilar faoliyati sohasidagi qonunchilikni takomillashtirishda foydalanish mumkin. Shu bilan birga, olingan xulosalar raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishda, robot-maslahatchilar texnologiyalarini joriy etishda va ma'lumotlar himoyasini ta'minlashda amaliy qo'llanilishi mumkin.

Shuningdek, tadqiqot natijalaridan Fuqarolik huquqi, Xalqaro xususiy huquq, Kiberhuquq, Xalqaro tijorat huquqi, Biznes huquqi kafedralarida O'zbekiston Respublikasining fuqarolik-huquqiy maqomi sohasidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ushbu fanlar bo'yicha yozma darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda, ma'ruza matnlari, o'quv kurslari dasturlari, ilmiy-tadqiqot ishlarini tayyorlashda, shuningdek, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi davomida olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

“maxsus huquqiy rejim” tushunchasiga sohalar bo'yicha yuridik shaxs bo'lgan tadbirkorlik subyektlarining zamonaviy texnologiyalarga asoslangan yangi mahsulot, xizmat yoki ishlarni nazorat qilinadigan cheklangan muhitda sinovdan o'tkazish bo'yicha faoliyatini tartibga solishning alohida tartibi” sifatida tavsiflash to'g'risidagi taklifdan Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-noyabrdagi 617-son qarori bilan tasdiqlangan “Tartibga solish qumdoni” maxsus huquqiy rejimini joriy etish tartibi to'g'risida”gi vaqtinchalik nizomning 2-bandi”ni ishlab chiqishda, raqamli texnologiyalar sohasida innovatsiyalar, xizmatlar va biznes mahsulotlarini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish bo'yicha “tartibga solish qumdoni”ni joriy etish to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli texnologiyalar xalqaro markazini tashkil etish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida” 2024-yil 1-fevraldagi PF-25-son Farmonining 3-bandini tayyorlashda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyati Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2025-yil 15-maydagi 12-16-38-son ma'lumotnomasi); Ushbu ta'rif mavjud konseptual bo'shliqni to'ldirdi va “tartibga solish qumdoni”ning yaxlit institutini shakllantirish uchun me'yoriy asos bo'ldi hamda sun'iy intellektning avtomatlashtirilgan tizimlari, shu jumladan, robot-maslahatchilar uchun “tartibga solish qumdoni” tushunchasini aniqlashga yordam bergan;

“mashinaviy o'qitish – ma'lumotlardagi o'zaro bog'liqliklarni aniqlash va o'rganish uchun jarayonlarni tadqiq qilish usullari (neyron tarmoqlar va statistika) va boshqa usullardan foydalangan holda tanlanmalarni o'rganish va tahlil qilish orqali xulosalar chiqaradigan algoritmlarni o'rganuvchi soha” haqidagi va “xalqaro tajriba asosida milliy qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish va takomillashtirish; sohaga oid ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qulay muhitni yaratish; xavfsizlik va etika talablarini joriy etish” takliflaridan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi PQ-358 sonli qarori bilan tasdiqlangan “Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi”ning 1-bobi 4-xatboshisi

3-bandini va 3-bob 1-bandini tayyorlashda foydalanilgan. (Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudining 27.08.2025-yildagi 84-25-sonli dalolatnomasi). Ushbu takliflar sun‘iy intellektning avtomatlashtirilgan tizimlari uchun “mashinaviy o‘rganish” tushunchasini aniqlashga hamda O‘zbekiston Respublikasida robot-maslahatchilarni joriy etish va tarqatishga yordam berdi;

“kapital bozori sohasida moliyaviy vositalar, tartib-taomillar va mexanizmlarni joriy etuvchi yuridik shaxslar uchun alohida tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, xususan, maxsus rejim” ini joriy etish to‘g‘risidagi va *“tartibga solish qumdoni doirasida yangi moliyaviy xizmatni sinovdan o‘tkazishga ruxsat berilgan yuridik shaxsni tartibga solish qumdoni ishtirokchisi deb e’tirof etish to‘g‘risida”* gi takliflar O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2023-yil 26-dekabrda 104-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Kapital bozori sohasida “Tartibga solish qumdoni” maxsus huquqiy rejimini taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 1-bandida hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2022-yil 30-avgustdagi 19/14-son qaroriga ilovada keltirilgan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan Moliyaviy xizmatlar sohasida maxsus huquqiy rejimni joriy etish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 1-bandida inobatga olingan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudining 27.08.2025-yildagi 84-25-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif sun‘iy intellektning avtomatlashtirilgan tizimlari uchun “maxsus rejim” tushunchasini aniqlashga hamda sun‘iy intellektning avtomatlashtirilgan tizimlari, shu jumladan, robot-maslahatchilar uchun *“tartibga solish qumdoni ishtirokchisi”* tushunchasini aniqlashga yordam bergan;

“tartibga solish qumdoni”ning asosiy maqsadlarini belgilash; moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatni kuchaytirish; moliyaviy xizmatlar mijozlarining huquqlarini himoya qilish va moliyaviy tizim barqarorligini ta’minlash sharti bilan yangi moliyaviy xizmatlarni joriy etishga ko‘maklashish; moliyaviy xizmatlar turlarini kengaytirish, ularning ommabopligini, mijozlar talablariga muvofiqligini va ularning qoniqish darajasini oshirish; moliyaviy xizmatni muvaffaqiyatli sinovdan o‘tkazish natijalari bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirish” taklifi hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2022-yil 30-avgustdagi 19/14-son qarori ilovasida keltirilgan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan Moliyaviy xizmatlar sohasida maxsus huquqiy rejimni joriy etish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 2-bandiga kiritilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudining 27.08.2025-yildagi 84-25-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif tartibga soluvchi qum qutisining asosiy maqsadlarini aniqlashga yordam berdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi Toshkent Davlat Yuridik Universitetining Xalqaro xususiy huquq kafedrasida bajarilgan va ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy tadbirda, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining chop etilishi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy maqola chop etilgan, shundan 6 tasi xorijiy nashrlarda, 3 tasi esa ilmiy maqola sifatida e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 158 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va unga bo'lgan ehtiyoj asoslab berilgan, tadqiqotning O'zbekistonda ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi ochib berilgan, dissertatsiyaning oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi yoritilgan. Shuningdek, kirishda tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, qo'llanilgan metodlari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning joriy etilishi, tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi, nashr etilgan ilmiy ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Birinchi bob “Fuqarolik huquqida robot-maslahatchilarning nazariy-huquqiy asoslari” deb nomlangan. Unda robot-maslahatchilar tushunchasi va huquqiy tabiati, robot-maslahatchilarni tartibga solishning nazariy asoslari, fuqarolik huquqida robot-maslahatchilarning huquqiy asoslari hamda robot-maslahatchilarni tartibga solishning turli nazariya va modellari tahlil qilingan.

Tadqiqot muallifi o'z ishida ko'plab iqtisodchi va yuridik olimlarning qarashlari va fikrlarini tahlil qilgan. Xususan, u quyidagi olimlar bilan nazariy bahs-munozaraga kirishgan: Harry M. Markowitz, James Tobin, William F. Sharpe, Melanie L. Fein, Pablo Sanz Bayon, Philipp Maume, Aurelio Gurrea-Martinez, Wai Yee Wan, Theresia Natalie Hoya, Gordon Kuo Siong Tan, Seo, T. Baker va boshqalar. Ularning qarashlari asosida quyidagi mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan:

robot-maslahatchi – bu sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari asosida virtual muhitda to'liq yoki qisman avtonom tarzda ishlaydigan, investitsiya maslahatchisi turiga mansub bo'lib, moliya, tibbiyot, ta'lim va boshqa sohalarida shaxsiylashtirilgan ma'lumotlar, tavsiyalar va muammolarga yechimlar taqdim etishga mo'ljallangan tizimdir.

Tadqiqot doirasida robot-maslahatchilarni huquqiy tartibga solishga oid uchta asosiy nazariy model tahlil qilindi:

1. **Sun'iy intellektning umumiy huquqiy subyektivligi nazariyasi:** bu nazariya ilg'or (avtonom) sun'iy intellekt tizimlariga o'ziga xos huquqiy maqom – “elektron shaxs” maqomini berishni nazarda tutadi, ya'ni ularni yuridik shaxslarga o'xshash tarzda mustaqil ravishda javobgarlikka tortish imkonini yaratadi. Mazkur konsepsiyaga 2017-yilda Yevropa Parlamenti tomonidan qabul qilingan Rezolyutsiya turtki bo'lgan. Biroq bu yondashuv tanqidga uchramoqda, chunki SIning ong, iroda va zararni qoplash imkoniyati yo'qligini inobatga olmaydi hamda ishlab chiquvchilarning javobgarlikdan qochish xavfini keltirib chiqaradi.

2. **Funksional ekvivalentlik doktrinasi:** bu amaliy yondashuv hisoblanib, sun'iy intellekt tizimlariga huquqiy maqom bermasdan, ularning bajaradigan funksiyasi asosida amaldagi huquq normalarini tatbiq etishni taklif etadi (masalan, investitsiya maslahatchisi sifatida). Mazkur yondashuv xalqaro huquqiy manbalarga, xususan, UNCITRALning Elektron savdo to'g'risidagi model qonuniga asoslangan. Bu model huquqiy aniqlikni ta'minlashi sababli qo'llab-quvvatlanadi, biroq sun'iy intellekt tizimlarining yuqori darajadagi avtonomligi va natijaviy harakatlarining oldindan bashorat qilib bo'lmashligi sababli yuzaga keladigan “huquqiy bo'shliqlar” uchun yetarli emasligi sababli tanqid qilinadi.

3. Elektron agent modeli: ushbu model sun'iy intellektni inson yoki tashkilot (ishonch bildiruvchi) nomidan va uning manfaatlarida harakat qiluvchi vosita (agent) sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv odatiy agentlik munosabatlariga o'xshab, sun'iy intellekt tizimini vositachi sifatida ko'radi. Mazkur model AQShdagi UETA (Uniform Electronic Transactions Act) kabi hujjatlarda mustahkamlangan bo'lib, UNCITRAL tomonidan ham qo'llab-quvvatlanadi. Model javobgarlikni taraflar o'rtasida taqsimlashga imkon beradi, ammo o'z-o'zini o'rganuvchi tizimlarga nisbatan qo'llashda muammolarga duch keladi. Bunga sabab – vakolatlar chegarasining noaniqligi va natijada javobgarlikning tarqalib ketish xavfi mavjudligi hisoblanadi. Tahlil natijasida quyidagi asosiy muammo aniqlandi: sun'iy intellekt tizimlarining ortib borayotgan avtonomligi bilan inson irodasiga asoslangan an'anaviy huquqiy konstruksiyalar o'rtasida chuqur qarama-qarshilik mavjud. Hozirgi bosqichda eng maqbul yondashuv deb kombinatsiyalashgan model tan olinmoqda: u funksional ekvivalentlik hamda agent modeli elementlarini birlashtiradi. Shu bilan birga, algoritmik tabiat, sun'iy intellekt tizimlarining avtonomlik darajasi va u bilan bog'liq xavflarni hisobga oluvchi moslashuvchan, multidisiplinar huquqiy doiralarni ishlab chiqish zarurligi ta'kidlanmoqda. Shu bilan birga, sun'iy intellekt uchun cheklangan huquqiy subyektivlik masalasida ilmiy munozaralarni davom ettirish lozim.

Tadqiqot davomida robot-maslahatchilarni fuqarolik-huquqiy tartibga solishning asosiy metodlari ularning algoritmik tabiati va an'anaviy subyektivlik (jismoniy va yuridik shaxslar) kategoriyalariga to'g'ri kelmasligi inobatga olingan:

1. Xavfga yo'naltirilgan yondashuv: bu yondashuv sun'iy intellekt tizimlari bilan bog'liq potensial xavflarni (masalan, xatoliklar, kamsitish, shaffoflikning yetishmasligi) baholash va boshqarishga qaratilgan. U tizimlarni xavf darajasiga qarab tasniflaydi va Yevropa Ittifoqining sun'iy intellekt haqidagi qonunchiligi hamda ESMA (European Securities and Markets Authority) tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

2. Xulq-atvoriga asoslangan tartibga solish: bu yondashuv foydalanuvchilarning kognitiv xatolarini hisobga oladi, masalan, sun'iy intellektga haddan tashqari ishonish yoki xavflarni yetarli baholamaslik. "Nudging" metodlari orqali interfeyslar yaratilib, foydalanuvchilarga tavsiyalarni tushunarliroq yetkazish maqsadida axborot berish darajasi oshiriladi. Ushbu yondashuv K. Sansteyn g'oyalari va Yevropa Ittifoqi amaliyotiga asoslanadi.

3. Yaratuvchining javobgarligi (design-based): bu yondashuvda asosiy e'tibor sun'iy intellekt tizimlarini ishlab chiquvchilarga qaratilib, ularning konstruksiyasi, o'quv ma'lumotlari va xavfsizligi uchun javobgarlik yuklatiladi. Bu yondashuv EU AI Act va "ethics by design" (ya'ni loyihalashtirish bosqichidanoq etik talablarni inobatga olish) konsepsiyasi bilan ifodalanadi. Biroq u innovatsiyalarni sekinlashtirishi mumkinligi sababli tanqid qilinadi.

4. O'z-o'zini tartibga solish va delikt javobgarligi (negligence): bu model soha ichidagi yumshoq standartlar (soft law) ga asoslanadi va sun'iy intellekt tizimi ishlashida ehtiyotsizlikka yo'l qo'yilgan hollarda AQShda keng tarqalgan tort law asosida keyinchalik javobgarlik masalasini ko'taradi. Ushbu yondashuv R. Kalo tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Ammo u tanqid qilinadi, chunki u faqat hodisa sodir bo'lgandan so'ng javobgarlikni aniqlashga asoslangan va sabab-oqibat aloqalarini aniqlashda qiyinchiliklar mavjud.

5. Gibrid yondashuv (hard law + soft law): bu model qat'iy huquqiy me'yorlarni

(ma'lumotlarni himoya qilish, iste'molchilar huquqlari) moslashuvchan axloqiy kodekslar va sanoat standartlari bilan birlashtiradi. Masalan, Yaponiyada METI Guidelines asosida qo'llaniladi. Bu innovatsiyalar bilan xavfsizlik o'rtasida muvozanatni ta'minlaydi, biroq soft lawning deklarativlik xavfiga duch keladi. Dissertatsiyada robot-maslahatchilarning texnologik murakkabligi va avtonomligi bilan an'anaviy fuqarolik-huquqiy tuzilmalar o'rtasidagi asosiy qarama-qarshilik tahlil qilingan. Ikki asosiy tartibga solish yo'nalishi mavjud: preventiv (YIda: xavfga yo'naltirilgan yondashuv, ishlab chiquvchilarning javobgarligi) va liberal (AQShda: o'zini-o'zi tartibga solish, ehtiyotsizlik uchun javobgarlik). Ishda shuni isbotlab berilganki, gibrid modellar (masalan, Yaponiya tajribasi) murosaviy yechimlarni taklif qiladi, biroq bir qator asosiy muammolar saqlanib qolmoqda: xalqaro yondashuvlarning uyg'unlashtirilmaganligi, javobgarlikni aniqlashdagi murakkablik, algoritmlarning shaffofligi va hisobdorligini ta'minlash zarurati, hamda axborot assimetriyasi sharoitida foydalanuvchilar huquqlarini himoya qilish ehtiyoji. Ishda moslashuvchan, fanlararo yondashuvlarni ishlab chiqish va xalqaro standartlarni ilgari surish muhimligi ta'kidlangan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi – "Chet el yurisdiksiyalarida robot-maslahatchilarni tartibga solishning huquqiy tahlili" deb nomlanadi. Ushbu bobda quyidagilar tahlil qilingan: Shimoliy Amerikada (AQSh va Kanada) robot-maslahatchilarni tartibga solishga oid regulyator yondashuvlar; Yevropa modeli: robot-maslahatchilarni tartibga solish bo'yicha direktivalar va amaliyot (Buyuk Britaniya va Germaniya tajribasi); Osiyo tajribasi: innovatsiyalar va huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari (Xitoy, Singapur, Avstraliya misolida).

Ushbu bobda quyidagi olimlar: Theresia Natalie Hoya, Denis Latulippe,

John A. Turner, Huang R. H., Wang C. C., Zhang O. X., Dominique Payette, Joel Parker, Bret E. Strzelczyk, Ryan Clements, Aurelio Gurrea-Martínez, Wai Yee Wan, Auwal Adam Sa'ad, Sayed Musa Alhabshi, Azman bin Mohd Noor, Rusni Hassan, Viraj Vishwarupe Tommy Vu, Wolf-Georg Ringe, Christopher Ruof va boshqalarning ilmiy ishlari tahlil qilingan.

Tahlil asosida muallif quyidagi xulosaga kelgan: robot-maslahatchilarni tartibga solishda yagona yondashuv mavjud emas. Har bir o'rganilgan mamlakat o'zining sun'iy intellekt asosidagi avtomatlashtirilgan tizimlariga nisbatan alohida yondashuvi va tartibga solish xususiyatlariga ega.

Tadqiqot jarayonida tadqiqotchining aniqlashicha: AQSh modeli 1940-yildagi Investitsiya maslahatchilari to'g'risidagi qonunni mexanik qo'llashga asoslangan bo'lib, robot-maslahatchilarni an'anaviy moliyaviy maslahatchilarga tenglashtiradi, biroq bu yondashuv algoritmik faoliyatning o'ziga xos jihatlarini hisobga olmaydi. AQShda robot-maslahatchilarni tartibga solish federal va shtat darajasida amalga oshiriladi, bu jarayonda SEC (Qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha komissiya) va FINRA (o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilot) faol ishtirok etadi. Sun'iy intellekt tizimlarini inson-maslahatchi bilan tenglashtirish quyidagi muhim farqlarni inkor etadi: empatiya yo'qligi, kontekstual tahlilga qobiliyatsizlik, algoritmik xatoliklar xavfi. Muallifning fikricha, **AQShning mavjud modeli** zamonaviy sun'iy intellekt bilan bog'liq chaqiriqlarga javob bera olmaydi. Ayniqsa, formal yondashuv sun'iy intellekt rivojlanish dinamikasini e'tiborga olishga imkon bermaydi. Bu esa algoritmik maslahatchilar uchun maxsus regulyator

rejimni ishlab chiqishni talab qiladi. Kanadada esa Qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga soluvchi organlar (CSA) investitsiya tavsiyalari beruvchi kompaniyalar uchun quyidagi talablarga rioya etishni belgilagan: tavsiyalarni inson tomonidan tekshirishda ishtirok etish majburiyati; portfel boshqaruvchisi sifatida litsenziyalash va unga fidutsiar majburiyatlar yuklash; “mijozingni bil” (**KYC**) va “mahsulotni bil” (**KYP**) tamoyillariga amal qilish. Muallif xulosa qiladi: Kanada modeli xavflarni kamaytiradi, biroq xizmat narxini oshiradi. **Buyuk Britaniyadagi regulyator qumdoni** – rivojlanayotgan bozorlar uchun etalon hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlikka tahdid solmasdan sun’iy intellektni sinash imkonini beradi. FCA¹⁰ orqali Britaniya modeli, “tartibga solish qumdoni” usuli va xulq-atvor xatarlariga urg‘u berish rivojlanayotgan bozorlar uchun maqbuldir: tizimli tahdidlarni minimallashtirish orqali innovatsiyalarni rag‘batlantiradi. **Germaniyaning** robot-maslahatchilarni tartibga solish bo‘yicha BaFin (Federal moliyaviy nazorat boshqarmasi) tomonidan amalga oshiriladigan yondashuvi o‘ta ehtiyotkorligi bilan ajralib turadi. Germaniyadagi ishchi maslahatchilar uchun bunday tizimlar an’anaviy investitsiya maslahatchilari yoki brokerlari kabi bank qonunchiligiga muvofiq litsenziyalanishi kerak. Bu katta kapitalni saqlash, jismoniy ofisning mavjudligi va algoritmlarning adolatliligi va shaffofligini ta’minlash uchun ularni mustaqil baholash majburiyatini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ishda **Xitoyda** CSRC (Qimmatli qog‘ozlarni tartibga solish komissiyasi) ning qat’iy nazorati, aktivlarni avtonom boshqarishni taqiqlash, bu esa robotlarni maslahat berish funksiyalari bilan cheklash va algoritmlar uchun yagona standartlarning yo‘qligi tufayli me’yoriy noaniqlik bilan tavsiflangan robot-maslahatchilarni tartibga solish o‘rganilgan. **Singapur** eng muvozanatli modelni namoyish etmoqda: soddalashtirilgan litsenziyalash orqali innovatsiyalarni rag‘batlantiradi; investorlarni sug‘urta va audit bilan himoya qilishni kafolatlaydi. **Avstraliya** ham “oltin o‘rtalik”ka amal qiladi: algoritmlar sifatini qat’iy nazorat qilish va xalqaro markazlar orqali innovatsiyalarni rag‘batlantirish¹¹. O‘zbekiston Respublikasida, muallif tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, Singapur va Avstraliya tajribasiga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchi bob “Robot-maslahatchilar bilan bog‘liq fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish muammolari va istiqbollari” deb nomlanadi. Ushbu bobda robot-maslahatchilar bilan bog‘liq fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishdagi muammolar, mijozlarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish va maxfiylik masalalari, sun’iy intellekt va robot-maslahatchilarning huquqiy subyektivligi, robot-maslahatchilarning fuqarolik-huquqiy javobgarligi tahlil qilinadi. Shuningdek, bobda “elektron shaxs” konsepsiyasi – robot-maslahatchilarni tartibga solish va ulardan foydalanishning istiqbolli huquqiy modeli sifatida ko‘rib chiqiladi hamda O‘zbekiston Respublikasida robot-maslahatchilarni rivojlantirish va qo‘llash uchun qonunchilikni takomillashtirish zarurati asoslanadi.

Mazkur bobni yozish jarayonida muallif quyidagi olimlarning ishlari va qarashlariga tayanadi: Indu Nain, Dr. Sruthi Rajan, Francesco

¹⁰ (**Financial Conduct Authority**) – bu **Buyuk Britaniyaning Moliyaviy harakatlar boshqarmasi** bo‘lib, moliya bozorining asosiy tartibga soluvchisidir.

¹¹ Tartibga soluvchi markazlar (innovation hubs) – bu innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash uchun regulyatorlar tomonidan yaratilgan fintech startaplari uchun maslahat platformalari.

D'Acunto, Alberto G. Rossi, Sergio M. C. Avila Negri, Joshua Jowitt, Mulgan T, Shchitova A.A., Filippova I.A., Lutova D.V., Li Guo, Gunther Teubner, Anna Beckers, Mehdi Dastani, Vahid Yazdanpanah, Kofman P., Daniel Schwarcz, Tom Baker, Kyle Logue, Salve Regina va boshqalar.

Maxfiylik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish muammosi bo'yicha quyidagi holatlar aniqlangan va asoslab berilgan: robot-maslahatchilarga nisbatan ruxsatsiz kirish, ma'lumotlardan noqonuniy foydalanish va kiberhujumlar xavfi, ayniqsa sun'iy intellekt yordamida sodir etilayotgan firibgarliklar (deepfake, soxta hujjatlar) sonining oshib borayotganligi fonida; sun'iy intellekt tizimlarining barcha real vaziyatlarni qamrab olishga qodir emasligi, bu esa zaifliklarga olib keladi; xavfsizlikni ta'minlash uchun kompleks yondashuv zarurligi (texnik xavfsizlik choralarini qo'llash, ma'lumotlarni shifrlash, zaxira nusxalarini yaratish, hodisalarga tezkor javob berish); fintex sohasida, ayniqsa xavfsizlik tizimlari kam rivojlangan startaplar uchun kiberxavflar mavjudligi, tizimlararo o'zaro bog'liqlik bu xavflarni yanada kuchaytirishi; texnologiyalar va robot-maslahatchilarga foydalanuvchi ishonchining ularni joriy etishda hal qiluvchi ahamiyatga egaligi; ma'lumotlarni qayta ishlashda axloqiy prinsiplar (maxfiylik, shaffoflik, rozilik, foydalanish maqsadini cheklash, xavfsizlik, aniqlik, dolzarblik va javobgarlik)ga amal qilish zarurligi. Shuningdek, GDPR (Ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha umumiy reglament) robot-maslahatchilarga tatbiq etilishi lozim bo'lgan quyidagi talablarni o'z ichiga oladi: rozilik olish, ma'lumot subyektlarining huquqlari, ma'lumotlarning xavfsizligi, xalqaro uzatish va jarimalar. Shaxsiy ma'lumotlarning oz sonli provayderlar qo'lida to'planishi hamda ularning sizib chiqishi natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibatlar – xususan, obro'ga va milliy xavfsizlikka tahdidlari mavjud bo'lib, bu yirik texnologik kompaniyalarni bo'lish masalasidagi bahs-munozaralarni keltirib chiqarmoqda.

Robot-maslahatchilar bilan bog'liq maxfiylik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish sohasida quyidagi asosiy jihatlar aniqlangan va tasdiqlangan:

- **zaifliklar va tahdidlar:** robot-maslahatchilarga nisbatan ruxsatsiz kirish, ma'lumotlardan noqonuniy foydalanish va kiber hujumlar xavfi mavjud. Ushbu xavflar sun'iy intellektdan foydalangan holda amalga oshirilayotgan firibgarliklar, xususan, deepfake va soxta hujjatlar bilan yanada kuchaymoqda;

- **sun'iy intellektning cheklanganligi:** sun'iy intellekt barcha real hayotiy vaziyatlarga to'liq va adekvat javob bera olmaydi, bu esa tizimlarda qo'shimcha zaifliklar yuzaga keltiradi;

- **kompleks xavfsizlik:** ishonchli himoyani ta'minlash uchun ko'p bosqichli yondashuv talab etiladi, jumladan, texnik xavfsizlik choralarini ko'rish, ma'lumotlarni shifrlash, zaxira nusxalarini yaratish va hodisalarga samarali javob berish;

- **fintech-xavflar:** fintech kompaniyalar, ayniqsa xavfsizlik tizimlari yaxshi rivojlanmagan startaplar, yuqori kiberxavflarga duchor bo'lmoqda. Tizimlararo bog'liqlik esa potensial tahdidlarni yanada oshiradi;

- **foydalanuvchi ishonchi:** robot-maslahatchilarni muvaffaqiyatli joriy etish foydalanuvchilarning texnologiyalarga va ularning ma'lumot xavfsizligini ta'minlash qobiliyatiga bo'lgan ishonchiga bevosita bog'liq;

- **axloqiy tamoyillar:** shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash qat'iy axloqiy me'yorlarga asoslanishi zarur – maxfiylik, shaffoflik, rozilik olish, foydalanish maqsadini cheklash, xavfsizlik, aniqlik, dolzarblik va qayta ishlash uchun javobgarlik;

- **ma'lumotlarning markazlashuvi va xavflar:** shaxsiy ma'lumotlarning oz sonli provayderlar qo'lida to'planishi – chiqib ketish holatlarida obro' va hatto milliy xavfsizlik uchun jiddiy tahdidlar tug'diradi. Bu holat yirik texnologik kompaniyalarni bo'lish masalasini muhokamaga olib chiqmoqda.

Ushbu bobda muallif tomonidan sun'iy intellekt va robot-maslahatchilarning huquqiy subyektligi muammolari, ularning murakkabligi va sun'iy intellektning huquqiy subyektligi masalasining qonunchilikda ishlab chiqilmaganligi turli nazariy yondashuvlar bilan isbotlangan: sun'iy intellektni vosita sifatida ko'rib chiqishdan tortib, huquq subyekti sifatida tan olishgacha. O'zbekiston qonunchiligida sun'iy intellektni tartibga solishning yo'qligi va mahalliy olimlarning (O. Oqyulov, S. Bozarov, J. Yuldashev) subyektning irodasi, ongi, intuitsiyasi yo'qligi sababli quyidagi xulosaga kelinadi: sun'iy huquq subyektliligi tartibga solish usuli sifatida sun'iy intellekt, obyekt va subyektning “alohida huquq subyektliligi” bilan gibridi.

Muallif robot-maslahatchilarning fuqarolik-huquqiy javobgarligi bilan bog'liq masalalarni kompleks o'rgandi hamda quyidagi asosiy jihatlarga e'tibor qaratdi:

1. ***Noto'g'ri tavsiyalar tufayli yetkazilgan zararning javobgarlik muammosi:*** Sun'iy intellekt tizimlarining xatoli qarorlari natijasida investorlar ko'rgan moliyaviy zararlarni kompensatsiya qilish uchun huquqiy tartibga solish zarurligi tahlil qilindi. Bu borada asosiy muammo – “qora quti” muammosi, ya'ni murakkab algoritmlarning qaror qabul qilish mantig'ini tushunib bo'lmagani, aybdorni aniqlashni qiyinlashtiradi.

Yorqin misol sifatida “Samaturo Lee Ki-kan kompaniyasining Raffaella Kostaga qarshi ishi” ko'rib chiqildi. Bu ishda K1 algoritmi sababli 23 million dollar miqdorida zarar yuzaga kelgan, biroq inson tomonidan hech qanday majburiyat buzilmagani va algoritmning o'zi huquqiy subyekt bo'lmagani sababli javobgarlikni yuklashning huquqiy mexanizmi yo'q edi.

Muallif bu muammoni yechish uchun algoritmlarga cheklangan huquqiy qobiliyat berish, ya'ni ularni “agent” sifatida qarash orqali “ishonch bildiruvchi-agent” modeli asosida javobgarlikni taqsimlash g'oyasini tahlil qildi.

2. ***Turli yurisdiksiyalardagi javobgarlik yondashuvlarining qiyosiy tahlili:***

Xitoy: robot-maslahatchilar – bu ishlab chiquvchilarning “mahsuloti” hisoblanadi. Har qanday zarar uchun ishlab chiquvchi aybsiz (mutlaq) delikt javobgarligiga tortiladi. Biroq muallif ushbu yondashuvning kamchiliklarini ko'rsatadi: SIning avtonomligi e'tiborga olinmaydi, barcha harakatlarni oldindan bashorat qilib bo'lmaydi, haddan tashqari javobgarlik esa innovatsiyalarni sekinlashtirishi mumkin.

Kanada: faqat gibrid modelga ruxsat beriladi – onlayn tavsiyalarni inson-maslahatchi har safar tekshirishi shart. Huquqiy javobgarlik bevosita ushbu inson va uning kompaniyasiga yuklanadi.

Singapur: moliyaviy maslahatchilar to'g'risidagi qonun robot-maslahatchilarning noaniq yoki mos kelmaydigan tavsiyalari uchun javobgarligini

aniq belgilaydi. Qonunda jarimalar va hibsga olish kabi sanksiyalar nazarda tutilgan bo‘lib, iste‘molchilar huquqlarining real himoyasini ta‘minlaydi.

Yevropa Ittifoqi: Sun‘iy intellekt to‘g‘risidagi qonunga asosan, robot-maslahatchilar yuqori xavfli tizimlar toifasiga kiradi. Javobgarlik ishlab chiquvchi va operator zimmasiga yuklatiladi (ma‘lumotlarning aniqligi, nazorat, hujjatlashtirish uchun). Zararni birinchi navbatda operator qoplaydi, keyin esa, ayb isbotlansa, ishlab chiquvchiga regress tartibida da‘vo qo‘yiladi. Avtonom SIning oldindan bashorat qilib bo‘lmaydigan harakatlari tufayli yuzaga kelgan zararlar uchun sug‘urta fondlari tashkil etilishi ko‘zda tutilgan. SI huquqiy subyekt sifatida tan olinmaydi. Shuningdek, muallif Mahsulotlar uchun javobgarlik to‘g‘risidagi Direktivani SI tizimlariga tatbiq qilishda qiyinchiliklar borligini ko‘rsatadi (masalan, nuqsonni isbotlash, sabab-oqibat bog‘liqligini aniqlash).

3. *Javobgarlikni taqsimlashning nazariy modellari:*

Toybner va Bekkersning (uch pog‘onali) modeli:

1. Qat‘iy shartlar (vakolat berish, avtonom qaror qabul qilish, noqonuniylik, majburiyatni buzish, sababiylik) bajarilganda *prinsipalning (agent-algoritm uchun) subsidiar javobgarligi*.

2. *Korxonada (inson-mashina jamoasi)ning shaxsiy darajadagi hissani chegaralash va sababiyatni aniqlash imkoni bo‘lmaganda, ammo jamoaviy qarorning zarari isbotlanganda javobgarligi.*

3. Bir-biriga bog‘liq algoritmik yechimlar birgalikda zarar yetkazganda dastlabki ikki rejimni qo‘llash imkoni bo‘lmaganda *fondlar/sug‘urta orqali kompensatsiya qilish.*

Dastoniy va Yazdanpanax tomonidan taklif etilgan agent mas‘uliyatini belgilovchi mustaqillik, niyatning mavjudligi, axloqiy fikrlash qobiliyati, harakatlar va oqibatlar o‘rtasidagi sababiy bog‘liqlik, shuningdek, muqobil xulq-atvorni tanlash imkoniyatini o‘z ichiga olgan mezonlar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, kodning tizimli xatolari uchun javobgarlik ishlab chiqish ishtirokchilari (dasturchilar, ishlab chiquvchilar, qo‘llab-quvvatlash xizmati) o‘rtasida ularning funksiyalariga muvofiq taqsimlanadigan klaster javobgarligi tushunchasi o‘rganildi. Inson-algoritmik tizimlarni yangi yuridik shaxslar tomonidan tan olinishi yoki yagona “tijorat-texnologik yaxlitlik” sifatida qaraladigan yaratish va ekspluatatsiya qilish zanjirining barcha ishtirokchilari (ishlab chiquvchilar, operatorlar, ishlab chiqaruvchilar) uchun qo‘shma/solidar javobgarlikni joriy etishni nazarda tutuvchi “gibrid javobgarlik” to‘g‘risidagi takliflar (Teylor, De Leu, Alleyn, Navas, Vladek va Yevropa Ittifoqi ekspertlar guruhi) tahlil qilingan.

4. *Javobgarlikni ta‘minlash bo‘yicha tartibga solish talablari o‘rganildi (Avstraliya misolida - ASIC RG 255)¹²:*

- malakali moliya mutaxassisi – fidutsiariyning majburiy nazorati (tavsiyalarning standartlarga muvofiqligini tekshirish);
- algoritmarga xizmat ko‘rsatuvchi texnik xodimlarning mavjudligi;
- nazorat va fidutsiar majburiyatlar iyerarxiyasi (menejerlar);
- risklarni boshqarish tizimlarini joriy etish;
- algoritmarni testlash (marketingoldi va muntazam);

¹² Avstraliya qimmatli qog‘ozlar va investitsiyalar komissiyasi tomonidan chiqarilgan moliyaviy xizmatlarni nazorat qilish bo‘yicha qo‘llanma.

- batafsil hujjatlashtirish (maqsad, dizayn, qarorlar mantig‘i);
- kiberxavfsizlik choralari va versiya nazorati;
- algoritm xatolariga javob berish protseduralari;
- adekvat kompensatsiya mexanizmlari (murakkab sud jarayonlarini talab qilmasdan mijozlarning zararlarini qoplash uchun professional javobgarlikni majburiy sug‘urta qilish).

Amaldagi qonunchilik avtonom sun‘iy intellekt tizimlari tomonidan yetkazilgan zararlar uchun javobgarlikni to‘liq tartibga solmaydi, ayniqsa qarorlar qabul qilish algoritmlari shaffof bo‘lmaganda (“qora quti” holati). Turli mamlakatlarda sun‘iy intellekt harakatlari uchun javobgarlikni tartibga solish bo‘yicha turlicha yondashuvlar mavjud: Xitoy – ishlab chiquvchilarga qat‘iy javobgarlik yuklaydi (ayb isbotini talab qilmasdan); Kanada – insonning qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etishini majburiy qiladi; Singapur, Yevropa Ittifoqi, Avstraliya – operatorlar va ishlab chiquvchilarning javobgarligini aniq belgilab, kompensatsiya mexanizmlarini nazarda tutadi. Biroq bu yondashuvlarning hech biri mukammal emas. Toybner va Bekkers tomonidan taklif etilgan nazariy modellarda moslashuvchan va ko‘p pog‘onali tizimlar orqali tavakkalchiliklarni taqsimlash va kompensatsiyani ta‘minlash nazarda tutiladi. Bu yondashuvlar odatda algoritmlarga ma‘lum darajada kvasi subyektivlik berish yoki gibrud huquqiy konstruksiyalarni yaratishni o‘z ichiga oladi. Avstraliya tajribasi ko‘rsatganidek, samarali tartibga solish uchun faqat javobgarlik qoidalarini belgilash yetarli emas, balki profilaktik choralarni – nazorat, sinov, hujjatlashtirish, xavfsizlikni ta‘minlash va sug‘urtani ham joriy etish zarur.

Algoritmlar orqali boshqariladigan tizimlar tomonidan yetkazilgan zararlarda javobgarlikni moliyaviy limitlar bilan taqsimlash modeli taklif etilmoqda. Kichik miqdordagi zararlar (100 million so‘mgacha) avtomatik tarzda, algoritm sug‘urtasi orqali kompensatsiya qilinadi. Belgilangan limitdan yuqori bo‘lgan yirik zararlar uchun esa xizmat operatori javobgar hisoblanadi. Agar zarar algoritmdagi nuqson tufayli yuzaga kelgan bo‘lsa, javobgarlik ishlab chiquvchiga yuklatiladi. Ushbu model foydalanuvchilar manfaatlarini himoya qilish bilan birga, xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar uchun boshqariladigan tavakkalchiliklarni ta‘minlash orqali ularni tizimlarni takomillashtirishga undaydi. Robot-maslahatchilarga fuqarolik-huquqiy maqom berilishi sharoitida bunday yondashuvning ahamiyati ortadi. Kelajakda, yuqori darajada rivojlangan avtonom sun‘iy intellektlar uchun cheklangan huquqiy subyektivlikni tan olish imkoniyati ko‘rib chiqilmoqda. Bu voyaga yetmagan shaxslarning huquqiy subyektivligiga o‘xshash bo‘ladi. Biroq bunda ham asosiy javobgarlik sun‘iy intellekt yaratuvchilari va operatorlar zimmasida qolishi lozim – bu ota-onalik javobgarligiga o‘xshash bo‘lib, texnologiyalarning nazoratsiz rivojlanishiga yo‘l qo‘ymaslikni ta‘minlaydi.

Taklif etilayotgan limitlangan va taqsimlangan javobgarlik modeli foydalanuvchilar manfaatlarini himoya qilish bilan birga texnologiyalarni rivojlantirishni ham rag‘batlantiradi. Mazkur modelning asosiy elementi – sun‘iy intellekt tizimlarining huquqiy maqomini aniqlashdir. Hatto ilg‘or SI tizimlariga cheklangan huquqiy subyektivlik berilishi tan olingan taqdirda ham, asosiy javobgarlik baribir ularni yaratgan va ekspluatatsiya qilayotgan insonlarga yuklatilishi lozim. Bu esa hisobdorlik va nazoratni ta‘minlash uchun muhimdir. “Sun‘iy shaxs” konsepsiyasi amaldagi prinsiplar asosida yangi huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

XULOSA

“Moliya bozorida robot-maslahatchilarning fuqarolik-huquqiy maqomi” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishi natijasida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalar hamda amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosa va takliflar:

1. Quyidagi atributsiyalar taklif etiladi:

robot-maslahatchi – bu to‘liq yoki qisman avtonom ravishda ishlaydigan, sun‘iy intellekt (SI) texnologiyalari asosida virtual tarzda ishlaydigan, turli sohalarda (moliya, tibbiyot, ta‘lim va boshqalar) shaxsiylashtirilgan ma‘lumotlar, tavsiyalar va muammolarni hal qilish uchun mo‘ljallangan investitsiya maslahatchisining bir turi.

Elektron shaxs (Digital Legal Person) – bu sun‘iy intellektga asoslangan, berilgan algoritmlar doirasida avtonom ravishda ishlay oladigan, fuqarolik-huquqiy munosabatlarga kirisha oladigan va mustaqil qaror qabul qila oladigan avtomatlashtirilgan tizimlarga belgilangan doirada jismoniy yoki yuridik shaxslarning huquqiy maqomiga o‘xshash alohida huquqiy maqom (huquq subyekti) berishni nazarda tutuvchi huquqiy tushuncha.

2. O‘tkazilgan tahlil shuni tasdiqlaydiki, robot-maslahatchilar (robo-advisers) – bu investitsiya bo‘yicha tavsiyalar berish va portfollarni boshqarish uchun sun‘iy intellektidan foydalanadigan algoritmlashtirilgan raqamli platformalardir. Ularning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy o‘rni investitsiya boshqaruvi xizmatlariga kirishni demokratlashtirish, moliyaviy to‘siqlarni yengib o‘tish va past daromadli shaxslarni ham qamrab olgan holda aholining keng qatlamlari uchun moliyaviy inklyuzivlikni ta‘minlashdan iboratdir. Ularning an‘anaviy maslahat xizmatlaridan farq qiluvchi asosiy jihati – mijoz profili algoritmik baholanishi va aktivlarni avtomatlashtirilgan boshqarishga asoslangan miqdoriy yondashuv bo‘lib, bu insoniy subyektivlik omilini minimallashtiradi. Shuni ta‘kidlash muhimki, robot-maslahatchilar “*investitsiya jarayonida inson omilini to‘liq almashtirmaydi va foyda kafolatini bermaydi*”. Ular investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish va investitsiya jarayonini avtomatlashtirish uchun foydali vosita bo‘lishi mumkin, biroq investorlar mustaqil tadqiqot o‘tkazib, ongli qarorlar qabul qilishlari zarur.

3. Adabiyotlar sharhi shuni ko‘rsatadiki, ilmiy doiralarda robot-maslahatchilar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarning hajmi va aniq xususiyatlari borasida yagona fikr mavjud emas. Biroq dissertatsiyada o‘tkazilgan tahlil investorlar uchun ularning jozibadorligini ta‘minlaydigan asosiy omillarni ajratib ko‘rsatishga imkon beradi: birinchidan, bu investitsion portfelni algoritmlar asosida to‘liq avtomatlashtirilgan boshqarish; ikkinchidan – qaror qabul qilish jarayonida inson aralashuvi minimal darajada bo‘lib, bu obyektivlikni ta‘minlaydi va operatsion xarajatlarni kamaytiradi. Shuningdek, muhim ustunliklardan yana biri – an‘anaviy maslahatchilarga nisbatan ancha past komissiya to‘lovlari bo‘lib, bu kapitalni professional boshqarishni keng aholi qatlamlari uchun ochiq qiladi. Shu bilan birga, raqamli platformalarning qulayligi va mavjudligi, ya‘ni oson foydalanish imkoniyati va investitsion strategiyalarni mijozning maqsadlari, investitsiya muddati va xavf

profiliga mos ravishda shaxsiylashtirish orqali individual yondashuv ta'minlanadi. Bu afzalliklar majmuasini to'ldiradigan yana bir jihat – xizmatlarning 24 soat davomida mavjudligi va texnik qo'llab-quvvatlanishi bo'lib, foydalanuvchilarga istalgan vaqtda tezkor masalalarni hal qilish imkonini beradi. Bu omillarning barchasi robot-maslahatchilarni zamonaviy moliya bozorida yuqori raqobatbardosh subyektga aylantiradi.

4. **Robot-maslahatchilarni tartibga solish bo'yicha nazariy modellarning tahlili uchta asosiy yondashuvni aniqladi:** (1) Sun'iy intellektga huquqiy subyektivlik berish: bu model mustaqil tizimlarga maxsus huquqiy maqom, masalan, "elektron shaxs" sifatida tan berishni va ular bajargan harakatlar uchun bevosita javobgarlik yuklashni nazarda tutadi. (2) Funktsional ekvivalent doktrinasi: bu konsepsiyaga ko'ra, sun'iy intellekt inson funksiyalarini bajaruvchi vosita sifatida qaraladi. Bunday holatda mavjud javobgarlik me'yorlari sun'iy intellekt egasi yoki operatoriga nisbatan qo'llaniladi. (3) Elektron agent modeli: bu yondashuv sun'iy intellektni ishonch bildiruvchining nomidan va topshirig'iga asosan harakat qiluvchi vakil sifatida talqin qiladi, bu holat elektron imzo va tranzaksiyalar to'g'risidagi qonunlarda tartibga solingani kabi. ***Xulosa qilib aytganda, ko'rib chiqilgan yondashuvlarning hech biri mukammal yechim emas. Ayni paytda eng istiqbolli yo'l – bu funktsional ekvivalent va elektron agent modelining elementlarini o'zida mujassam etgan kombinatsiyalashgan yondashuv hisoblanadi.*** Bu esa mavjud huquqiy doiralarni yangi texnologiyalarga moslashtirishga, innovatsiyalar, samaradorlik va huquqlarni himoya qilish o'rtasida muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi. Yuqori darajada avtonom sun'iy intellektga cheklangan huquqiy subyektivlik berish masalasi esa hali to'liq o'rganishni talab qiladi – bu texnologiyaning qo'llanilish xususiyatlari, mumkin bo'lgan xatarlar va haqiqiy shaxslarning javobgarligini saqlab qolish zarurati bilan bog'liq.

5. Tadqiqot doirasida robot-maslahatchilarni fuqaroviy-huquqiy tartibga solish bo'yicha asosiy yondashuvlar o'rganildi, jumladan: xavfga yo'naltirilgan yondashuv: ehtimoliy zarar darajasiga mutanosib tartibga solish; xulq-atvorni tartibga solish: kognitiv og'ishlar va manipulyatsiyalarni oldini olishga qaratilgan choralar; dasturchilarning javobgarligi: xavfsizlikni ta'minlash va axloqiy me'yorlarga rioya qilish bo'yicha majburiyatlar yaratuvchilarga yuklanadi; O'zini o'zi tartibga solish va beparvolik uchun javobgarlik: soha standartlariga asoslanish va zarar yetkazilgan taqdirda javobgarlikka tortish; soft law vositalaridan foydalanilgan gibril yondashuv: majburiy me'yorlar va moslashuvchan standartlarning kombinatsiyasi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, eng keng tarqalgan yondashuv – bu oldini olish choralarini (xavfga yo'naltirilgan yondashuv, dasturchilarning javobgarligi) moslashuvchan vositalar (xulq-atvorni tartibga solish, soft law) bilan uyg'unlashtirgan kompleks tartibga solish modellaridir. Bugungi kunda sun'iy intellekt yaratuvchilarining qonuniy javobgarligini dinamik soft law vositalari bilan uyg'unlashtirgan gibril tizimlarni shakllantirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu esa innovatsiyalarni rag'batlantirish bilan birga, noaniqlik sharoitida xavflarni boshqarish imkonini beradi.

6. Turli yondashuvlarning solishtirma tahlili shuni ko'rsatadiki, dunyoning aksariyat davlatlari sun'iy intellekt (SI)ni tartibga solishda mo'tadil yondashuvga

amal qilmoqda. Yevropa Ittifoqi bundan mustasno bo‘lib, inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan ancha qat’iy siyosat yuritmoqda. Xitoyda esa SIni tartibga solish Yevropaga qaraganda yumshoqroq. AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya kabi davlatlar esa dasturchilar uchun yanada erkin siyosat olib bormoqda. Shunga qaramay, Yevropa yondashuvi eng rivojlangani hisoblanadi va boshqa davlatlar ushbu sohada o‘z qonunchiliklarini ishlab chiqishda aynan yuqori xavfga ega SI tizimlari uchun majburiy me‘yorlarni joriy etish ehtimolini tobora ko‘proq ko‘rib chiqmoqda. Demak, xavfga asoslangan yondashuv kelajakda ko‘plab davlatlar SI qonunchiligining asosiy xususiyatiga aylanadi.

7. Xususan, Buyuk Britaniyaning muvaffaqiyatli tajribasi xorijiy tajribaning tahlili asosida, O‘zbekiston Respublikasida sun‘iy intellektga asoslangan texnologiyalar va raqamli iqtisodiyotdagi boshqa innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazishni rag‘batlantirish uchun **“regulyator qumdon hudud” (sandbox regulation)** mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiqligini asoslaydi. Bu yondashuv bozorning cheklangan vaqtda va ko‘lamda mavjud “kichiklashtirilgan” versiyasini yaratishni nazarda tutadi. Unda ishtirokchilar uchun maxsus huquqiy rejim joriy etiladi va ular vaqtincha (qisman) ayrim majburiy qonunchilik talablaridan (masalan, litsenziyalash, texnik tartibga solish sohalarida) ozod etiladi, bu esa innovatsiyalar uchun to‘siq bo‘lgan me‘yorlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bunday ozodlik O‘zbekistonning konstitutsiyaviy tuzumi asoslarini, axloqiylikni, sog‘liqni, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini, mudofaa va davlat xavfsizligini himoya qilishga zid bo‘lmasligi kerak. Bunday “qumdon hudud” regulyatorlar uchun “nazorat havzasini” yaratadi, moliyaviy xatarlarni baholashga va tartibga solish siyosatini shakllantirishga yordam beradi, shu bilan birga nazorat ostidagi sharoitda bozor beqarorligidan kelib chiqadigan potensial zararni cheklash imkonini beradi.

8. Robot-maslahatchilar tomonidan qo‘llaniladigan yuqori texnologik sun‘iy intellekt algoritmlarini tartibga solishda istiqbolli usullardan biri bu **“algoritmlarni mustaqil baholash”** hisoblanadi. Bu yondashuv samarali nazoratni ta‘minlash uchun uchinchi tomonlarni – texnik ekspertlar va ixtisoslashgan tashkilotlarni jalb etishni nazarda tutadi. Muvaffaqiyatli misol sifatida Germaniyani keltirish mumkin: u yerda notijorat tuzilmalar – mutaxassislar va jurnalistlardan iborat guruhlar ijtimoiy ahamiyatga ega algoritmlarni monitoring qiladi. Ular ma‘lumotlarga kirish qoidalarining qat’iyligi, raqamli boshqaruvning axloqiy ekspertizasi va shaxsiy ma‘lumotlarning ruxsatsiz qayta sotilishidan himoya qilinishini audit qilish usullarini qo‘llaydilar. Soha ekspertlarini jalb etish tartibga solishdagi kasbiy to‘siqlarni yengishga yordam beradi va Germaniya tajribasini O‘zbekiston Respublikasi regulyatorlari uchun qimmatli yo‘nalishga aylantiradi.

9. Moliyaviy vositachilar faoliyatini tartibga solish kontekstida MiFID II reglamentining 5-moddasida belgilangan **“litsenziyalash tartibi”** asosiy element hisoblanadi. U bozorga faqat milliy regulyatorlar tomonidan oldindan tasdiqlangan malakali shaxslarning kirishini ta‘minlaydi. Bu jarayon ishonchlilikni tekshirishni (masalan, sudlanganlik yo‘qligi) o‘z ichiga oladi va moliya bozorining tozaligini saqlashga xizmat qiladi. Mazkur tartib intizomiy mexanizm sifatida ham xizmat qiladi: litsenziya shartlarining buzilishi yoki shaxsiy talablarga mos kelmaslik

regulyator tomonidan litsenziyaning bekor qilinishiga olib keladi (MiFID II, modda 8). Ruxsatsiz xizmat ko'rsatish esa jarima qo'llanishiga asos bo'ladi. Ushbu model samaradorligini hisobga olgan holda, robot-maslahatchi xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar uchun O'zbekiston Respublikasida majburiy litsenziyalash tartibini joriy etish maqsadga muvofiq bo'lib, bu operatorlar malakasini ta'minlaydi, investorlarni himoya qiladi va moliya bozorining barqarorligini saqlashga xizmat qiladi.

10. O'zbekistonda avtomatlashtirilgan investitsion xizmatlar katta salohiyatga ega bo'lishiga qaramay, hozircha rivojlanishning dastlabki bosqichida turibdi va faqat qisman avtomatlashtirishni taklif qilmoqda. Bu yo'ldagi to'siqlar qatoriga fond bozorining rivojlanmaganligi, chakana investorlar bazasining cheklanganligi va amaldagi regulyatoriy to'siqlar kiradi. Shu bilan birga, moliyaviy savodxonlikning oshishi va qonunchilikning liberallasuvi o'sish istiqbollari yaratmoqda. Ushbu fintech segmentini tez va barqaror rivojlantirish uchun **“Avstraliya tartibga solish modeli”** ni O'zbekistonga moslashtirish yuqori samarali yechim sifatida ko'rilmogda. Uning asosiy afzalliklari – innovatsiyalarni rag'batlantirish va iste'molchilarni himoya qilish o'rtasidagi “oltin muvozanat”ni topish, moslashuvchan tartibga solish, proporsional litsenziyalash, algoritmlar shaffofligi va ma'lumotlar xavfsizligiga urg'u berish, regulyatoriy “qumdon zonalar”dan foydalanish va gibrid modellarni (robot + inson maslahatchi) qo'llab-quvvatlashdir.

11. Robot-maslahatchilarning huquqiy maqomi bo'yicha noaniqlik ularning harakatlari natijasida yuzaga kelgan zararlar uchun kim javobgar ekanini aniqlashda muammolarni keltirib chiqarmoqda. Zamonaviy avtonom sun'iy intellekt tizimlarining asosiy farqi – ularning o'z-o'zini o'rgatish va bevosita boshqaruvsiz rivojlanish qobiliyatidir. Bu esa **“elektron huquqiy subyekt”** toifasini joriy etishni talab qiladi. Bunday maqom o'z-o'zini o'rganuvchi tizimlar tomonidan oldindan aytib bo'lmaydigan harakatlar tufayli yetkazilgan zarar uchun qisman javobgarlikni bevosita SI-maslahatchining zimmasiga yuklashga imkon beradi (dasturchilar va operatorlar javobgarligiga qo'shimcha ravishda). Bu esa xavfsiz texnologiyalarni yaratishga undaydi va mos huquqiy tartibga solishni ta'minlaydi. O'zbekiston uchun elektron shaxs konsepsiyasini ishlab chiqish – ilg'or fintex yechimlarni huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlashning zaruriy shartidir.

12. Moliya bozorida robot-maslahatchilar samarali ishlashi uchun javobgarlikni taqsimlash tizimini joriy etish lozim, unda majburiyatlar dasturiy ta'minot, dasturchilar va operatorlar o'rtasida aniq ajratiladi. Biz quyidagi yondashuvni taklif qilamiz: **masalan, 100 million so'mgacha bo'lgan zararlar algoritm tomonidan sug'urta jamg'armasi yoki avtomatik to'lovlar orqali qoplanadi. Bu chegaradan oshgan zararlar uchun esa xizmat ko'rsatuvchi (operator) javobgar bo'ladi. Agar zarar texnologiya nuqsoni tufayli yuzaga kelsa, dasturchi javobgarlikka tortiladi.** Bunday yondashuv manfaatlar muvozanatini ta'minlaydi: foydalanuvchilar katta moliyaviy yo'qotishlardan himoyalanaadi, xizmat ko'rsatuvchilar esa o'z tizimlarini doimiy takomillashtirishdan manfaatdor bo'ladi, chunki ularning xavflari cheklangan va falokatli oqibatlarga olib kelmaydi.

13. Avtonom robot-maslahatchilar tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni taqsimlash muammosini hal qilish uchun **“majburiy sug'urtaning**

universal tizimi”ni yaratish taklif etilmoqda. Bu tizim xodimlar uchun kompensatsion fondlarga o‘xshash bo‘lib, boshqa sug‘urta polislarining zararni qoplamaydigan holatlarida tovon to‘laydigan maxsus sug‘urta fondi shaklida bo‘ladi. Robotlar dasturchilari va operatorlari ushbu fondga belgilangan miqdorda badallar to‘lab borishadi, bu esa ularni moliyaviy javobgarlikdan qisman himoya qiladi. Bu juda muhim, chunki robot-maslahatchilar algoritmlari hali mukammal emas va ularning xatolari investorlar uchun jiddiy moliyaviy yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin.

II. Amaldagi qonun hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar:

14. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga **“Elektron shaxs”** bo‘limini kiritish – avtonom tizimlar ishtirokidagi munosabatlarni tartibga solish uchun zaruriy qadam hisoblanadi. Bu nafaqat atamani aniqlashni, balki bunday tizimlarga fuqaroviy-huquqiy munosabatlarda mustaqil ishtirok etish imkonini beruvchi kompleks huquqiy maqom yaratishni nazarda tutadi. Bunda quyidagi masalalar hal qilinishi zarur: tizimni “elektron shaxs” sifatida tan olish mezonlari, sun‘iy intellekt (SI)ning o‘ziga xos xususiyatlarini, xususan o‘z-o‘zini o‘rgatish qobiliyatini hisobga oluvchi huquq va majburiyatlar, identifikatsiya, ro‘yxatga olish va faoliyatni tugatish mexanizmlari, shuningdek, zarar uchun javobgarlikni taqsimlash prinsiplari. Me‘yorlarni ishlab chiqishda texnologik taraqqiyotga moslashish uchun moslashuvchanlik va huquqiy noaniqlikni bartaraf etish, barqaror munosabatlarni ta‘minlash uchun aniqlik o‘rtasidagi muvozanatga erishish muhimdir.

15. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, sun‘iy intellektning huquqiy ta‘rifi bo‘yicha na nazariy, na amaliy jihatdan yagona yondashuv mavjud emas. Bu noaniqlik SI bilan bog‘liq huquqiy subyektivlik, zarar uchun delikt javobgarligi, hamda texnik-me‘yoriy bazani ishlab chiqish masalalarini sezilarli darajada murakkablashtiradi. Ushbu konseptual to‘siqni yengish uchun, mavjud SI va avtomatlashtirilgan tizimlarga berilgan talqinlarni hisobga olgan holda, fanlararo yondashuvga asoslangan huquqiy asoslangan ta‘rifni ishlab chiqish zarur.

Shu munosabat bilan, quyidagi hujjatlarni qabul qilish taklif qilinadi: **“O‘zbekiston Respublikasining Sun‘iy intellekt to‘g‘risidagi qonuni”**, **“O‘zbekiston Respublikasida robot-maslahatchilar faoliyati to‘g‘risidagi nizom”**, **“O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy sohada robot-maslahatchilardan foydalanishning (tavsiyaviy xarakteridagi) axloqiy normalari”**.

16. O‘zbekiston Respublikasida huquqiy aniqlikni ta‘minlash va investorlar huquqlarini himoya qilish maqsadida, **“Robot-maslahatchilar faoliyati to‘g‘risida alohida nizom”** ishlab chiqilishi lozim. Ushbu normativ hujjat robot-maslahatchilarning barcha faoliyat yo‘nalishlarini qamrab olishi kerak, jumladan: javobgarlikni taqsimlash, shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish, algoritmlarning shaffofligi va diskriminatsiyadan holiligi, kiberxavfsizlik, mijozlar bilan o‘zaro munosabatlar tartibi, maxfiylik kafolatlari, nizolarni hal qilish mexanizmlari, soha xususiyatlarini hisobga olgan holda. Huquqiy bazani ishlab chiqishda xalqaro ilg‘or tajribani inobatga olish va moslashtirish muhim bo‘lib, bu potensial xavflarni

minimallashtirish va samarali regulyator mexanizmlarni tez joriy qilish imkonini beradi.

17. *Quyidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga tegishli o'zgartishlar kiritishni taklif qilamiz: "Elektron savdo to'g'risida", "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida", "Tijorat siri to'g'risida", "Elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalarini huquqiy himoya qilish to'g'risida", "Sug'urta faoliyati to'g'risida", "Mualliflik huquqi va unga tutash huquqlar to'g'risida". Bu qonunlarga avtonom sun'iy intellekt tizimlari faoliyatini tartibga soluvchi normalarni kiritish zarur.*

18. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga "**Sun'iy intellekt tizimlariga vakolatlarni topshirish shartnomasi**" deb nomlangan maxsus huquqiy mexanizmni ishlab chiqish va kiritish taklif etiladi. Ushbu shartnoma SI tizimlari va investorlar o'rtasidagi munosabatlarni quyidagi prinsiplar asosida tartibga soladi: (1) SI tizimlarining bitimlardagi ishtiroki bilan bog'liq alohida huquqiy munosabatlarni tan olish; (2) SI tizimlari ishlashining shaffofligini ta'minlash – asosiy algoritmik parametrlarning oshkor etilishi orqali; (3) avtonomlik darajasiga mutanosib ravishda ishlab chiquvchilar, operatorlar va foydalanuvchilarning farqlangan javobgarligini belgilash; (4) muqobil nizolarni hal qilish usullarini o'z ichiga olgan maxsus tartiblarni joriy etish. Ushbu shartnomaviy vositaning joriy etilishi raqamli iqtisodiyot bozorida ishtirokchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilgan holda, innovatsiyalarni rag'batlantirish va SI loyihalariga investitsiya kiritish uchun qulay huquqiy muhit yaratishga xizmat qiladi.

III. Amaliy taklif va xulosalar:

19. *Bizning fikrimizcha, robot-maslahatchilar to'g'risidagi qonunchilikni ishlab chiqishda quyidagi asosiy tamoyillarni hisobga olish lozim:*

birinchidan, inson huquqlari, jamiyat va davlat xavfsizligi ustuvor bo'lishi kerak;

ikkinchidan, sun'iy intellekt va uning turlaridan (robot-maslahatchilar) kamsitishlarsiz teng foydalanish huquqi kafolatlanishi kerak; sun'iy intellekt tizimlari odamlarning alohida guruhlarini ushbu asosiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatidan adolatsiz ravishda mahrum qilish maqsadida kamsitish uchun ishlatilmasligi kerak;

uchinchidan, maslahat beruvchi robotni ishlab chiqish va tijoratlashtirish bo'yicha shaffoflik ta'minlanishi kerak;

to'rtinchidan, insonning robot bilan qanday muloqot qilishni tanlash huquqi, shu jumladan, sun'iy intellektdan foydalanishni rad etish huquqi kafolatlanishi kerak;

beshinchidan, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish.

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, asosiy "universal tamoyil" insonparvarlik yondashuvi bo'lib, u insonga yo'naltirilgan jamiyat sharoitida inson qadr-qimmatini hurmat qilishga e'tibor qaratadi. Shuning uchun robot-maslahatchining huquqiy tartibga solinishi ustuvor ravishda uning huquq va erkinliklarini belgilashi va batafsil tavsiflashi kerak.

20. Moliyaviy sektorda robotlashtirilgan maslahat berishning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun muvofiqlashtirilgan harakatlar zarur. Siyosatchilar algoritmlarning shaffofligi va ishlab chiquvchilarning hisobdorligini ta'minlash orqali innovatsiyalarni rag'batlantirishlari, shu bilan birga sun'iy intellektga muhim sohalarda mustaqil qaror qabul qilish funksiyalarini o'tkazishni qonuniy ravishda taqiqlashlari kerak. Olimlar xalqaro tajribani o'rganib, tartibga soluvchi tavsiyalar ishlab chiqishlari kerak. Regulyatorlar real kutilmalarni shakllantirish va texnologiyalardan ongli foydalanishni rag'batlantirish uchun raqamli savodxonlik dasturlarini joriy etishlari va jamiyatning sun'iy intellektning afzalliklari va xavflari, shu jumladan, potensial zararli qo'llanishlar haqida xabardorligini oshirishlari muhimdir. Mijozlarga axborot va fikr-mulohazalarni faol o'rganish tavsiya etiladi. Raqamli transformatsiyani qo'llab-quvvatlash va qulay texnologik siyosatni yaratish ham xizmatlarning tarqalishiga yordam beradi. Faqat shunday kompleks yondashuv innovatsiya va xavfsizlik o'rtasidagi zarur muvozanatni ta'minlaydi, texnologik tahdidlarni minimallashtiradi va iste'molchilar ishonchini mustahkamlaydi.

21. Sun'iy intellekt asosida ishlaydigan dasturlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanishda insonlar har doim aqlli mashinalar, shu jumladan, robot-maslahatchilar ustidan nazoratga ega bo'lishini ta'minlash muhimdir. Sun'iy intellekt, xususan, robot-maslahatchilarga asoslangan dasturlarni ishlab chiqish va joriy etish inson tomonidan nazorat qilish masalasiga jiddiy e'tibor qaratishni talab qiladi. Odamlar doimo "rulda" qolishini ta'minlash asosiy vazifa bo'lib, uning hal etilishi bunday tizimlarni qo'llashning xavfsizligi, axloqiyliigi va samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Bu shunchaki robot-maslahatchi inson o'rnini bosmasligi kerakligi haqida emas, balki ancha nozik jihatlar haqida. Sun'iy intellekt kompetensiyasining aniq chegaralarini aniqlash kerak. Robot-maslahatchi juda katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashi, qonuniyatlarni aniqlashi va yechimlarni taklif qilishi mumkin, ammo **"yakuniy qaror har doim insonda qolishi kerak"**. Bu operatorga robotning qaror qabul qilish jarayoniga aralashish imkonini beradigan "inson kiritishi" mexanizmlarini ishlab chiqishni talab qiladi, hatto bu aralashuv sun'iy intellekt tomonidan taklif qilingan variantdan chetga chiqishni anglatgan taqdirda ham.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЮРИДИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

НАБИРАЕВА ЗАРНИГОР АКМАЛОВНА

**ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОЙ СТАТУС РОБОТОВ-КОНСУЛЬТАНТОВ
НА ФИНАНСОВОМ РЫНКЕ**

12.00.03 – Гражданское право. Предпринимательское право.
Семейное право. Международное частное право

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) по юридическим наукам

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2023.2.PhD/Yu1052.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном юридическом университете. Автореферат диссертации размещён на трёх языках (русском, узбекском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета Ташкентского государственного юридического университета (www.tsul.uz) и Информационно-образовательном портале Ziyonet (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: Нарзиев Отабек Саъдиевич
доктор юридических наук, профессор

Официальные оппоненты: Якубов Ахтам Нусротиллоевич
доктор юридических наук, профессор

Исмаилов Акбар Анварович
доктор юридических наук, профессор

Ведущая организация: Институт переподготовки и повышения квалификации юридических кадров

Защита диссертации состоится 15 ноября 2025 года в 12:00 на заседании Научного совета DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 по присуждению учёных степеней при Ташкентском государственном юридическом университете. (Адрес: 100047, город Ташкент, улица Сайилгох, 35. Тел.: (99871) 233 66-36; факс: (99871) 233-37-48; info@tsul.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного юридического университета (зарегистрирована № 1442). (Адрес: 100047, город Ташкент, улица Амира Темура, 13. Тел.: (+99871) 233-66-36.

Автореферат диссертации разослан «29» октября 2025 года.
(Протокол реестра от «29» октября 2025 года № 95).



U. Ruzmurodov

И.Р. Рустамбеков
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор юридических наук, профессор

Д.Ю. Хабибуллаев
Научный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор юридических наук, профессор

Б.К. Ходжаев
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор юридических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Во всём мире развитие современных технологий, включая внедрение роботов-консультантов, способствует популяризации профессиональных услуг в области управления активами, обеспечивая их доступность для инвесторов с невысоким объёмом капитала. Автоматизация процессов позволяет значительно снизить затраты на управление инвестициями по сравнению с традиционными методами. Алгоритмический подход минимизирует влияние человеческих эмоций и предвзятости на инвестиционные решения. Роботы-консультанты способны обрабатывать огромные объёмы данных и принимать решения гораздо быстрее человека. Несмотря на автоматизацию, эти системы способны предоставлять индивидуальные рекомендации, учитывающие уникальные потребности каждого клиента. Необходимо признать, что использование таких инновационных технологий не только увеличивает возможности человека, но и меняет экономику и качество жизни.

По всему миру с каждым годом использование роботов-консультантов растёт. По прогнозам, к 2025 году активы на рынке под управлением роботов-консультантов достигнут 2,06 трлн долларов США. Ожидается, что активы под их управлением продемонстрируют годовой темп роста (CAGR 2025–2029) на уровне 3,66 %, что приведёт к прогнозируемой общей сумме в 2,38 трлн долларов США к 2029 году. К 2029 году количество пользователей на рынке роботов-консультантов составит 34,05 млн пользователей. Ожидается, что в 2025 году средняя стоимость активов под управлением на одного пользователя на рынке роботов-консультантов составит 61,9 тыс. долларов США. С точки зрения глобального сравнения наибольший объём активов под их управлением достигнут в Соединённых Штатах (в 2025 году 1,67 трлн долларов США). По данным отчёта Market Research Future, с 2021 по 2023 год мировой рынок роботов-консультантов рос с ежегодными темпами более 30 %. В 2023 году объём рынка достиг 8,14 млрд долларов США. В 2022 году, по данным Statista, было зарегистрировано около 26 млн активных пользователей роботов-консультантов, что на 40 % больше по сравнению с 2021 годом. Одна из наиболее часто используемых сфер – финансовая. Роботы-консультанты активно используются для управления инвестициями и финансовыми консультациями. Так, в 2023 году более 70 % рынка роботов-консультантов приходилось на финансовый сектор. Кроме того, в последние годы активно развиваются решения для автоматизации клиентской поддержки и маркетинга в розничной торговле. США являются страной-лидером в использовании роботов-консультантов, особенно в финансовом секторе. В 2023 году более 60 % всех пользователей роботов-консультантов проживали в США. Китай занимает второе место, активно внедряя роботов-консультантов в сферы розничной торговли и здравоохранения. В Европе по количеству пользователей роботов-консультантов, с акцентом на

финансовые и образовательные услуги, лидируют Германия и Великобритания¹.

В Узбекистане уделяется особое внимание внедрению новых инновационных технологий. В связи с этим был принят ряд указов и постановлений: Указы Президента Республики Узбекистан «О первоочередных мерах по созданию Международного центра цифровых технологий» от 1 февраля 2024 года № УП–25², «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» от 28 января 2022 года № УП–60³, «Об утверждении Стратегии “Цифровой Узбекистан – 2030” и мерах по её эффективной реализации» от 5 октября 2020 года № УП–6079⁴; постановления Президента Республики Узбекистан «О мерах по внедрению специального режима применения технологий искусственного интеллекта» от 26 августа 2021 года № ПП–5234⁵, «О мерах по созданию условий для ускоренного внедрения технологий искусственного интеллекта» от 17 февраля 2021 года № ПП–4996⁶, «Об утверждении Стратегии развития технологий искусственного интеллекта до 2030 года» от 14 октября 2024 года № ПП–358⁷; постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «Об утверждении Положения об организации специального режима поддержки технологий искусственного интеллекта и порядка его деятельности» от 29 ноября 2021 года № 717⁸ и другие нормативно-правовые акты, ускорившие цифровизацию нашей страны и направленные на внедрение новейших технологий в экономическую сферу. Эти документы представляют собой комплексный план и определяют направления дальнейших исследований по использованию технологий искусственного интеллекта, криптографии, машинного обучения, анализу больших данных и облачных вычислений, а

¹ Statista Market Insights. URL: <https://www.statista.com/outlook/fmo/wealth-management/digital-investment/robo-advisors/worldwide> (most recent update: Oct. 2024).

² О первоочередных мерах по созданию Международного центра цифровых технологий: Указ Президента Республики Узбекистан от 1 февраля 2024 г. № УП–25 // Национальная база данных законодательной информации Республики Узбекистан. URL: <https://lex.uz/docs/6786380>

